

# Pokistonning elchisi Surxondaryoda



Uchrashuvda viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy, geografik imkoniyatlari hamda o'ziga xos investitsiyaviy xususiyatlari, shuningdek, "Termiz xalqaro savdo markazi" da Pokiston bilan o'zaro faol hamkorlik aloqalari to'g'risida so'z yuritildi. Tomonlar o'zaro qiziqtirgan masalalarda fikr almashib, hamkorlik yo'nalishlarini muhokama qildilar.

Shundan so'ng, mehmonlar Termiz xalqaro savdo markazida amalga oshirilayotgan loyihalar, xalqaro logistika markazi hamda mavjud imkoniyatlar bilan yaqindan tanishishdi.

Delegatsiya a'zolarining viloyatimizga tashrifi davom etmoqda.